



UDK: 821+577.4.008

Abdug'afur QOSIMOV,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: a_kasimovfarduo824
Oybek DADAJONOV,
FarDU katta o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: oybek.dadajonov.89@inbox.ru

Professor, psix.f.d. B.Aliyev taqrizi asosida

INFLUENCE OF NATURALISM IN THE DRAMA "BEFORE SUNRISE"

Annotation

The article highlights the problem of naturalism, era and hero in Gerhart Hauptmann's drama "Before Sunrise". Based on artistic analysis, poetic methods that illuminate the hero's character are studied.

Key words: Naturalism, drama, literature, life, family, woman, hero, character, environment, society, alcoholism.

ВЛИЯНИЕ НАТУРАЛИЗМА В ДРАМЕ «ПЕРЕД РАССВЕТОМ».

Аннотация

В статье освещается проблема натурализма, эпохи и героя в драме Герхарта Гауптмана «Перед восходом солнца», на основе художественного анализа исследуются поэтические приемы, раскрывающие характер героя.

Ключевые слова: Натурализм, драма, литература, жизнь, семья, женщина, герой, персонаж, среда, общество, алкоголизм.

"QUYOSH CHIQISHIDAN OLDIN" DRAMASIDA NATURALIZM TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada Gerhart Hauptmann "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi naturalizm, davr va qahramon muammosi yoritilgan. Badiiy tahlillar asosida qahramon xarakterini yorituvchi poetik usullar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Naturalizm, drama, adabiyot, hayot, oila, ayol, qahramon, xarakter, atrof-muhit, jamiyat, ichkilikbozlik.

Kirish. XX asr G'arbiy Yevropa adabiyotida dramaturgiya naturalizm, tanqidiy realizm va modernizm oqimlari ta'sirida maydonga keldi. Ushbu oqimlarning har biri o'z falsafasi, talqin yuli, kaxramonlari, kompozitsion tizimi va o'ziga xos konflikt shakliga ega edi. XIX asr oxiri va XX asrga mansub bo'lgan ushbu adabiy oqimlar dramaturgiyasi ma'rifatchilik dramaturgiyasi kabi keng ijtimoiy-madaniy qamrovga erisha olmadi. Bu davrda dramaturgiyaning keng taraqqiy etishi uchun ma'lum vaqt talab etildi. Bunga asosiy sabab qilib, proza janrlarining rivojlanishini keltirish mumkin. Drama nazariyasiga doir kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, bu janr G'arbiy Yevropa xalqlari ijtimoiy, madaniy turmush tarzi, ayni xududdagi siyosiy o'zgarishlar, falsafiy karashlar, estetik tafakkur va diniy-e'tikodiy ehtiyoji natijasi o'laroq taraqqiy etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida keltirib o'tilgan omillar XX asr nemis dramaturgiyasiga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Nemis ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar adabiyot va san'atda ham o'z ifodasini topdi va uning rivoji murakkab sharoitda kechdi. Ko'plab ijtimoiy, siyosiy qo'zqalonlarga qaramay Germaniyada adabiyot asosiy o'ringa ko'tarildi. Nemis adabiyotida tanqidiy realizm shakllana boshladi, naturalizm, dekadentchilik oqimlari muhim o'rin egalladi, biroq ular adabiyotda ustunlik qilolmadi. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, nemis naturalizmi shakllanishiga fransuz adiblarining ta'siri katta edi. Sababi aynan fransuz yozuvchisi Emil Zola (1840-1902) muayyan dunyoqarashga asoslangan voqelikni badiiy idrok etishning ijodiy usuli va tamoyillari tizimi sifatida naturalizm asoschisi bo'ldi. Nemis naturalizmidagi yangi teatrning roli, avlodlar to'qnashuvi nuqtai nazaridan qaraganda, ayollarning oiladagi mavqeini ko'rsata oladigan yangi dramaning ahamiyati asosiy planga chiqdi. XX

asr nemis dramaturgiyasining atqoli yozuvchilaridan biri Gerhart Hauptman (1862-1946) naturalizm oqimida yashab ijod qildi. Uning dramaturgiyasida hayotning turli tomonlari tasvirlanib, naturalizm ta'siri sezilib turadi. Biroq tadqiqotchi Karl S.Guthke fikriga ko'ra, Hauptmann asarlari "naturalizmga aldamchi o'xshash"ligini, umuman olganda naturalizmga qarama-qarshi pozitsiyani egallashini aytib o'tadi. [1] Bu bilan Hauptman Naturalist bo'lmaganligini anglatadimi? Aksincha yozuvchining bir nechta asarlari naturalizm davrida yozilgan bo'lib, naturalizm talablariga mos tushadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Davr nuqtai nazaridan qaraganda naturalizmning maqsadi asardagi voqelikni to'g'ridan-to'g'ri aks ettirishdan iborat bo'lib, uni shevaga, kundalik tilga (muloqot) murojaat qilingan. Karl Hillebrand 1884 yilda shunday yozgan edi: "Zamonamizning deyarli barcha muhim fantastik asarlari xalqning quyi tabaqasiga tegishli, chunki til va tuyg'u o'rtasida hali ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud." [2]

Darhaqiqat, asarda til va tuyg'u o'rtasidagi bog'liqlikning doimiy mavjudligi asar muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Asar tili oddiy xalq tilidan berilgani esa asarning jonli chiqishiga, kitobxon qalbiga oson kirib borishiga sabab bo'ladi.

Gerhart Hauptmanga dastlabki shon-shuhrat keltirgan "Quyosh chiqishi oldidan" (Vor Sonnenaufgang, 1889) dramasi bo'lib, biologik determinizm [3] mavzusi bilan chambarchas bog'liq. "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi nemis teatridagi naturalizmning yutug'iga xos bo'lib, inson o'z taqdirini o'zi belgilab yashamaydi, balki uning rivojlanishi allaqachon atrof-muhit, irsiyat va tarbiya bilan, undagi qahramonlar esa iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar va atrof-muhit

ta'siri bilan belgilanadi, degan qat'iylik nazariyasi bilan bog'liq.

Qahramonlarga nisbatan obyektivlikka ega bo'lgan muallifning his-tuyg'ulari va fikrlari dramaning dastlabki qismida chetda qoladi. Bu ham naturalizmning o'ziga xos belgisi bo'lib, asarda uni atrof-muhitni tasvirlash orqali ko'rish mumkin. Dramada har bir harakatdan oldin joy va vaqt aniq tasvirlangan.

Das Zimmer ist niedrig; der Fussboden mit guten Teppichen belegt [4]

Xona quyida; Pol yaxshi gilamlar bilan qoplangan. (Tarjima bizniki – O.D.)

Dramada tasvirlanishicha, ko'mir sotish evaziga boyib ketgan va shu moliyaviy yutuqlar tufayli ichkilikbozlik qurboniga aylangan dehqon oilasi haqida so'z yuritiladi. Mana shunday dehqonlardan biri Krauzedir. Boylik uning ko'zini ko'r qiladi. Natijada Krauze ichkilikka mukkasidan ketadi, achinarlisi uning bu holati ayoli va qiziga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va ular ham ichkilikka tobe bo'ladi. Hattoki kuyovi Martaning eri injener Hofman, konda ishlovchilarni qattiq ekspluatatsiya qiladi. U ham o'zini ichkilikdan tiyolmaydi. Yozuvchi Hauptman jamiyatda ichkilikbozlik haqida fikr bildirib, "oilaning buzilishi ko'pincha haddan tashqari spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bilan bog'liqligini, ammo mavjud imkoniyatdan foydalanib bu bilan kurashish lozimligini, aks holda kelajak avlodga katta havf bo'lishligini" [5] aytib o'tadi. Bu aynanchli muhitda, ayniqsa, injener Hofmanga uning universitetda birga o'qigan do'sti, sotsialist Alfred Lot qarshi qo'yilgan. Yozuvchi asarda har bir qahramonini batafsil tasvirlashga harakat qilgan.

Loth ist mittelgroß, breitschultrig, untersetzt, in seinen Bewegungen bestimmt, doch ein wenig ungelenkt; er hat blondes Haar, blaue Augen und ein dünnes, lichtblondes Schnurrbartchen, sein ganzes Gesicht ist knochig und hat einen gleichmäßigen ersten Ausdruck. Er ist ordentlich, jedoch nichts weniger als modern gekleidet. [4]

Lot o'rta bo'yli, keng yelkali, gavgdali, harakatlarida qat'iylik, ammo biroz noqulaylik bor; uning sochlari sarg'ish, ko'zlari ko'k va ingichka, mo'ylovi och sariq, butun yuzi suyakli jiddiy ifodaga ega. U zamonaviylikdan kam bo'lmagan chiroyli kiyingan. (Tarjima bizniki – O.D.)

Adib qahramoniga ta'rif berish orqali kundalik hayotning haqiqati va oddiyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu tarzda inson hayotining umumiy manzarasini ham ochib berish, jamiyat va uning muammolarini, shu jumladan jamiyatning aynanchli tomonlarini kengroq tasvirlashga urinadi. Drama bosh qahramonlaridan biri Lot burjua jamiyati yuzaga keltirgan adolatsizliklarni qattiq qoralaydi. "ter to'kib ishlagan mehnatkash och qolib, tekinox'r farog'atda yashasa, bu bema'nilik emasmi! Barcha odamlar baxtli bo'lsalar, men ham baxtliman", [6] deydi Lot. Shunday yuksak maqsadlar bilan yashagan Lotda salbiy harakatlar ham tasvirlanadi. Krauzelar naslida alkoholizm ta'siri borligini bilgach, u oilaning kichik qizi sof, pokiza hislatlarga ega Yelenani qo'rqqoqlik qilib tashlab ketadi. Vaholanki Yelena alkoholizmdan umuman yiroqda edi.

Tahlil va natijalar. Timofeyev L.N fikriga ko'ra "Drama – o'tkir, ammo qahramon taqdiri turli shakllarda namoyon bo'ladigan, muayyan darajalarda yechimga ega

bo'lgan konfliktlarni aks ettirish", [7] deb yozadi. Darhaqiqat "Quyosh chiqishidan oldin" dramada Yelena xarakteri shahiddek tasvirlangan. Jamiyat muommolaridan uzoqda o'sgan Yelena o'z uyiga qaytganidan so'ng o'ziga kela olmadi. Oilasining har bir a'zosi alkoholga qaramligini ko'rgan Yelena qattiq iztirob chekadi. Yelenaning kelajagi oiladagilarga umuman qizig' yo'q edi. U otasining fermasida yashaydi va uning atrofidagi odamlar yo kambag'al ko'mirchilar yoki dalalarini sotib boyib ketgan savodsiz dehqonlar edi. U ijtimoiy jihatdan zaif, o'qimagan muhitga moslasha olmaydi.

Asarda Yelenaning boshqa muhitda tarbiyalangani unchalik ahamiyatli emasdek tuyulsa-da, uning ichkilikka berilib ketmasligining asosiy sababi shu edi. Onasining o'limi va otasining ikkinchi turmushi Yelenaning mehrbonlik uyida voyaga yetishiga olib keladi, ammo uning bolaligi bir qarashda fojiali ko'rinsa-da, bu fojiali bolalik uni spirtli ichimlikdan qutqaradi.

Alfred Lot Krauzelar oilasida yagona obektiv shahs bo'lib, oilaning qolgan a'zolaridan farqli o'laroq, ichkilikning oqibatlarini kelajakka ta'siri haqida ko'p o'ylaydi va uni qanday oqibatlarga olib kelishini biladi. Bu uning Yelenani tark etishining asosiy sababi edi. Uning oilasi alkoholga tobeligi oila merosi uchun juda katta xavf edi. Lot Yelenaga uylangan taqdirda unga nima taklif qila olaman deb o'ylaydi. U juda tanqidiy va instinktga ega odam sifatida har doim shubhali hayollarga berilar edi.

„Loth: Loth: Auch habe ich dir, soviel ich weiß, bereits einmal gesagt, daß ich in Bezug auf das Heiraten nichts verschworen habe; was ich fürchte, ist: daß es keine Frau geben wird, die sich für mich eignet.“ [8]

"Loth: Bundan tashqari, bilishimcha, men senga bir marta aytdimki, men nikoh haqida hech qanday qasam ichmaganman; Men qo'rqaman, menga mos keladigan ayol bunday bo'lmaydi. (Tarjima bizniki – O.D.)

Bu masalada Hauptman o'sha vaqtda keng tarqalgan fiziologik ta'limotga suyanadi. Qahramon Lotning chegaralangan qarashlari Yelenani baxtsizlikka olib boradi va uning o'limiga sababchi bo'ladi. Lekin dramadagi bosh konflikt alkoholizm masalasi emas, balki sotsialist Lot bilan kapitalist Hofman o'rtaqidagi ziddiyat asosiga qurilgan sinfiy kurashdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Gerhart Hauptman naturalizm oqimida o'z o'rniga ega bo'lgan nemis ijodkorlaridan biridir, sababi adib asarlarida hayotning haqiqiy tasvirini bera olgan. U jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini diqqat bilan kuzatadi. Shu sababli yozuvchi asarlarida asosiy e'tibor hayotni birlashtirgan ijtimoiy adolatni izlash, insoniy qadriyatlarini tiklash yo'lida jon kuydirib kurashadi. Uning asarlaridan sezish mumkinki, suv oqimiga qarshi suzuvchi odam ekanligi yaqqol ko'rinish, ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy adolatsizlikni qoralaydi. Gerxart Hauptmanning "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi "tabiiy drama" deb atash mumkin. Adib asari orqali ana shu ijtimoiy maqsadni ko'zlaydi. "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi ilmiy aniqlik bilan obyektiv idrok qilinsa, asar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Bugungi davr asarlarida tabiiylikka ko'p murojat qilinishi, suniylkdan uzoqlashish tilimiz va badiiy adabiyotimiz yuksalishiga sabab bo'lgan bo'lur edi.

ADABIYOTLAR

1. Karl S. Guthke: Gerhart Hauptmann. Weltbild im Werk. Zweite veränderte Auflage. München: Franksche 1980, S. 55.
2. Schmähling, W. Die deutsche Literatur. Ein Abriss in Text und Darstellung: Naturalismus. Philipp Reclam. Jun. GmbH. 1999. S. 22.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-томли. – Москва: Рус тили, 1981. – Б.222.
4. Gerhart Hauptmann. Vor Sonnenaufgang. Soziales Drama. Herausgegeben von Peter Langemeyer. Reclam universalbibliothek. www.reclam.de. S. 10.
5. Hauptmann, Gerhart: Sämtliche Werke Hrsg. Von Hans Egon Hass. Ullstein GmbH, Berlin, 1996. S. 55
6. Каримов III. Немис адабиёти тарихи. Мумтоз сўз. Тошкент. 2010. – Б. 109.

7. Жўракулов У. Адабий-тарихий жараён: Ижодкор. жанр. Хронотоп. Ғафур Ғулом нашриёти. Тошкент. 2015. – Б. 9.
8. Hauptmann, G. Vor Sonnenaufgang; Soziales Drama. Berlin: Ullstein Buchverlage GmbH. 2006. S. 73.
9. Dadajonov O. Nemis ma'rifatparvarlik dramasida qahramon xarakteri talqini/ O'zMU Xabarlari, 202-204 betlar. Toshkent-2022, 1/3. 3 bet.
10. Dadajonov O. EMERGENCE STAGES OF UZBEK DRAMA/ INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, IBAST ISSN: 2750-3402, Volume: 3, Issue: 4 April 2023. SJIF Impact Factor: 8.2. Germaniya, 380-384 betlar. 5 bet.
11. Dadajonov O. STAGES OF DEVELOPMENT OF THE MODERN DRAMA/ ACADEMIC INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTI-DISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION Hosted from Pittsburgh, USA.97-99 betlar. 3 bet.